

Ilyosbek Bozorbayev
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
e-mail: ibozorbayev@mail.ru
Tel: +998947674121
UDK: 37.091.33:371.13

KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kontekstli yondashuv asosida pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Metodik kompetentlikning tarkibiy qismlari, ularni shakllantirishda muhim omillar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va muammoli o'qitish usullarining o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, kontekstli o'qitish orqali pedagoglarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlashtirish, ularning reflektiv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kontekstli yondashuv, metodik kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, muammoli o'qitish, refleksiya, ta'lim sifati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема развития методической компетентности педагогов на основе контекстного подхода. Проанализированы структурные компоненты методической компетентности, важные факторы её формирования, роль современных образовательных технологий и проблемного обучения. Также раскрываются возможности интеграции теоретических знаний и практических навыков педагогов через контекстное обучение и развития их рефлексивной деятельности. На основе результатов исследования обосновано, что развитие методической компетентности является важным фактором повышения качества образования.

Ключевые слова: контекстный подход, методическая компетентность, педагогические технологии, проблемное обучение, рефлексия, качество образования.

ABSTRACT

This article explores the issue of developing teachers' methodological competence based on a contextual approach. It analyzes the structural components of methodological competence, the key factors contributing to its formation, and the role of modern educational technologies and problem-based teaching methods. The paper also highlights the integration of theoretical knowledge and practical skills of teachers through contextual teaching and the development of their reflective activities. The research findings substantiate that enhancing methodological competence is a significant factor in improving the quality of education.

Keywords: *contextual approach, methodological competence, educational technologies, problem-based teaching, reflection, quality of education.*

KIRISH

Pedagogda shakllangan metodik kompetentlik ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim oluvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim sanaladi. Ta'lim sifati bevosita pedagogning kasbiy mahorati va metodik yondashuvlariga bog'liq bo'lib, bunda kontekstli yondashuv pedagogik jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarni faollikka undash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogda metodik kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar vositasida nafaqat an'anaviy bilimlarni yetkazish, balki ta'lim oluvchilar bilan interaktiv muloqot qilish, ularning fikrlash qobiliyatini shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Kontekstli yondashuv nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga xizmat qiladi, ya'ni ta'lim oluvchilarning o'quv fan asoslarini chuqurroq tushunishiga va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishiga yordam beradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u pedagog va ta'lim oluvchilar

o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, ta'lim jarayonini interaktiv shaklga keltiradi va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish orqali pedagog ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va ularga turli vaziyatlarda optimal yechim topish ko'nikmalari shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik kasbiy kompetentligida metodik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Metodik kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: *o'quv fani bo'yicha (predmetli) kompetentlik* (pedagogning o'z mutaxassislik fanini mukammal bilishi); *psixologik-pedagogik kompetentlik* (talabalar bilan samarali hamkorlikda ishlash va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish); *metodik kompetentlik* (o'quv jarayonini tashkil etish va takomillashtirishga doir bilim, ko'nikmalar majmuasi).

Metodik kompetentlikning tarkibiy jihatlari turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. I.Y.Kovalyova ta'kidlashicha, metodik kompetentlik pedagogning ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarini o'z ichiga olgan integrativ tavsifga ega bo'lib, metodologik, metodik va tadqiqot kompetentlikni o'z ichiga oladi [1].

Y.A.Nagrelli metodik kompetentlikni kasbiy kompetentliging ajralmas qismi deb hisoblab, uni quyidagi jihatlar bilan bog'laydilar: ilmiy-nazariy bilim va ko'nikmalarning yetukligi; talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; kasbiy faoliyat samaradorligiga nisbatan qiziqish va motivatsiyaning mavjudligi [2].

A.L. Zubkov metodik kompetentlikning quyidagi uch jihatiga etibor qaratgan: metodik tafakkur (pedagogning mavjud bilimlarni metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish mahorati); metodik madaniyat (o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga yo'naltirilgan ijodiy yondashuv); metodik ijodkorlik (talabalarni fanga qiziqтира olish va o'qitish jarayonida yangi metodlarni ishlab chiqish ko'nikmasi) [3].

O.N. Igna metodik kompetentlik tuzilishini quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi: metodik bilimlar va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati; metodik

atamalarni bilish va tushunish; tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv; didaktik va ijodiy qobiliyatlar; o'quv-metodik masalalarni hal qilish tajribasi [4].

I.Y. Malova metodik kompetentlikni pedagogning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli egallash jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, ushbu kompetentlikning rivojlanishi pedagogning shaxsiy fazilatlari va kasbiy yondashuvlariga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [5].

Pedagogda metodik kompetentligi pedagog faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslangan holda rivojlanadi va pedagogda kasbiy rivojlanish tizimidagi metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-tarbiyaviy faoliyatining yaxlitligi hamda uyg'unligini aks ettiradi. Mazkur kompetentlikning rivojlanishi pedagogning o'z kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondashishi, innovatsion metodlarni samarali o'zlashtirishi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgani ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi nazarda tutadi.

NATIJALAR

Kontekstli o'qitish texnologiyalarini keng amaliyotga tatbiq etish pedagoglarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga muhim sanaladi. Bu yondashuv, ayniqsa, muammoli ta'lim usullarini qo'llash orqali pedagoglarga talabalar fikrlash jarayonini faollashtirish imkonini yaratadi, bu esa talabalar tahliliy va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va turli innovatsion metodlar, interaktiv seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishli pedagoglarning metodik kompetentligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu jarayonda refleksiv (lotincha "reflexio"-ortga nazar solish) faoliyat muhim rol o'ynaydi, chunki u pedagoglarga o'z tajribasini tahlil qilish va samaradorligini baholash imkonini beradi.

Olib borilgan pedagogik tadqiqot ishida pedagogda metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarga pedagogning munosabatlari savolnoma va suhbat asosida o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Pedagogning metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar

Kasbiy rivojlanishingiz uchun ahamiyatli ko‘nikmani baholash		Izohli javoblar
1	Davlat ta’lim standartlari (DTSt) talablarini o‘rganish	
2	Ta’lim va tarbiy jarayonini rivojlantirishga oid turli (Farmonlar, Qarorlar va boshqa) me’yoriy hujjatlarga asoslanib faoliyat olib borish	
3	O‘qitilayotgan fan bo‘yicha dasturiy-metodik va normativ hujjatlar tahlil qilish	
4	Fan bo‘yicha zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish	
5	AKT va boshqa pedagogik texnologiyalarni o‘rganish	
6	Talabalar intizomi va xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish	
Kasbiy tadbirlarning metodik kompetentlikning rivojlanishiga ta’sir darajasini baholash		
1	Malaka oshirish kurslari (Offline, Online) va malaka oshirish dasturlari	
2	Trening seminarlari, konferensiyalar va boshqalar	
3	Hamkasblarning darslarini kuzatish	
4	Ilmiy pedagogik loyihalarda ishtirok etish	
5	O‘z ishlanmalarini ommalashtirish	

Ushbu so‘rovnoma natijalari bizga pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga ta’sirini qiluvchi omillarga e’tibor qaratish lozimligi, shuningdek, o‘qituvchilarni malaka oshirish jarayoniga jalb etish motivlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning maqsadlarini aniqlashtirishga va ularga individual yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan.

Olib borilgan pedagogik tadqiqotimiz davomida pedagoglardada metodik kompetentlikni baholashga qaratilgan savolnoma tuzilmasi ishlab chiqildi va uning asosida pedagoglarning o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish jarayonlari o‘rganildi (2-jadval). Ushbu metodikaga ko‘ra pedagogdan

savollarga javob berishda o'zi tanlagan javobga mos bo'lgan ustunlardan biriga belgi "+" qo'yish so'raladi: 1- qiyinchiliklarga duch kelganimda uni hal qilishda hamkasblarim bilan maslahatlashaman; 2- muammolarni o'zim qisman hal qila olaman; 3- muammolarni mustaqil o'zim hal qila olaman.

Ushbu jadval pedagoglarning metodik kompetentligini baholashga qaratilgan bo'lib, pedagoglarning o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish qobiliyatlarini aks ettiradi

2-jadval

Pedagogning metodik kompetentligini aniqlash bo'yicha so'rovnoma

№	Ko'rsatkichlar	1	2	3
1	Talabalarining ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalash			
2	Ta'lim maqsadlari va vazifalariga mos holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlarini o'quv jarayonida samarali qo'llash			
3	Talabalarining individual va ularning psixologik xususiyatlariga mos ta'lim strategiyalarini tanlash			
4	Talabalarining mustaqil ishlashi va tadqiqot olib borish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish			
5	Talabalarining bilim darajasini tahlil qila olasiz va ularning yutuqlarini baholash			
6	AKT va raqamli resurslardan foydalanib, o'qitish jarayonini tashkil etish			
7	AKT vositalaridan foydalanib metodik kompetentligini oshirish va o'z tajribasini ommalashtirish			
8	O'quv materiallarini talabalarga tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish uchun turli metodik usullardan foydalana olasiz.			
9	Talabalar erishgan natijalarning (fan bo'yicha va fanlararo kompetensiyalar) ta'lim maqsadlariga muvofiqligini baholash			
10	Talabalarining motivatsiyasini oshirish uchun o'quv jarayonida			

	innovatsion yondashuvlardan foydalanish			
11	Dars jarayonida muammoli ta'lim usullarini qo'llash olish			
12	Kasbiy faoliyatda doimiy takomillashuvga intilish va yangiliklarni amaliyotda qo'llash			

Metodik kompetentlik ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u didaktik maqsadlarning aniqligi, o'quv jarayonini loyihalash qobiliyati, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish darajasi, ta'lim natijalarini baholash, individual yondashuvni qo'llash, muammolarni hal qilish kompetensiyasi, ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlari kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Metodik kompetentligini baholashning ilmiy-metodologik asoslari pedagogika va ta'lim nazariyasining ilg'or yondashuvlariga tayanadi. Jumladan, kontekstli o'qitish metodologiyasi pedagogning amaliy faoliyatga yo'naltirilganligini, real pedagogik vaziyatlar asosida kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday yondashuv pedagoglarning nazariy bilimlarini real ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, muammoli o'qitish metodologiyasi ham metodik kompetentlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu metodologiya muammolarni aniqlash, ularni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish va muayyan didaktik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli, jadvalda aks ettirilgan ko'rsatkichlar pedagogning ushbu metodologiyalardan qay darajada samarali foydalana olishini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur so'rovnomaning ahamiyati shundaki, u pedagoglarning faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, kasbiy rivojlanish bo'yicha yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Metodik kompetentlik ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish hamda individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu jadvalda aks ettirilgan mezonlar pedagogning didaktik va metodik tayyorgarlik darajasini baholashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, didaktik maqsadlarning aniqligi pedagogning dars rejasini ishlab chiqish va uni amalga

oshirishdagi samaradorligini aks ettiradi. O'quv jarayonini loyihalash qobiliyati esa pedagogning ta'limni tashkil etish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini belgilaydi.

MUHOKAMA

Pedagoglarning motivatsiyasi va metodik kompetentligini baholash natijalari tadqiqotning muhim qismini tashkil etadi. Tadqiqot davomida olib borilgan so'rovnoma, test, trening darslari natijalari asosida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali malaka oshirish dasturlarining samaradorligi baholanadi hamda pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi (malaka oshirish jarayonida vaqt o'lchovidagi ziddiyatlar, o'quv resurslarining cheklanganligi, malaka oshirish kurslarining amaliyotga moslash). Shuningdek, malaka oshirish jarayonida individual yondashuvni joriy etish va pedagoglarning ehtiyojlariga mos kurslar ishlab chiqish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olgan holda ularning metodik kompetentligini oshirish dasturlarini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, malaka oshirish tizimining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi ham pedagoglarning o'z-o'zini rivojlantirishiga keng imkoniyat yaratadi. Masofaviy ta'lim va onlayn resurslardan samarali foydalanish orqali malaka oshirish jarayonining moslashuvchan va qulay bo'lishiga erishish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Pedagoglarning metodik kompetentligini oshirishda kontekstli o'qitish yondashuvini tatbiq etish samarali strategiyalardan biri hisoblanadi. Chunki kontekstli o'qitish orqali Pedagoglar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, malaka oshirish dasturlariga kontekstli o'qitish elementlarini kiritish va Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatida bu yondashuvdan foydalanishiga imkon yaratish zarur.

XULOSA

Pedagogning metodik kompetentligini kontekstli yondashuv asosida rivojlantirish ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga, nazariy bilimlarning

amaliyot bilan uyg'unlashuviga va ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, metodik kompetentlikning tarkibiy qismlarini chuqur o'zlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash va muammoli ta'lim usullarini amaliyotga joriy etish pedagog faoliyatining innovatsion rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, pedagoglarda reflektiv faoliyatni shakllantirish, ularning o'z ishini tahlil qilish va doimiy takomillashtirishga intilishini rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ковалева И.Ю. развитие научно-методической компетентности педагогов в условиях образовательного выбора: автореф. дис...канд. пед. наук. мурманск, 2007. – 21 с.
2. Нагрелли Е.А. формирование методической компетентности учителей в системе повышения квалификации: автореф дис. ... канд. пед. наук. кемерово, 2009. – 25с.
3. Зубков А.Л. развитие методической компетентности учителей в условиях модернизации общего образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук. екатеринбург, 2007. – 19 с.
4. Игна О.Н. структура и содержание методической компетентности учителя иностранного языка // ярославский педагогический вестник. №1. 2010. – с. 90–94.
5. Малова И.Е. сущность и уровни методической компетентности учителя математики // ярославский педагогический вестник. 2006. №4 (49). – с. 107–109.